

“ZAMONAVIY DUNYODA IJTIMOIIY-GUMANITAR VA FILOLOGIK TA'LIM”

Shahrisabz davlat pedagogika
insituti Pedagogika fakulteti
Pedagogika kafedirasi o'qituvchisi
Rahmatullayev Botir Sobir o'g'li
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ernazarov Firdavs Norbobo o'g'li
Rahmatullayevbotir70@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda ijtimoiy-gumanitar va filologik ta'limning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida insoniyatning ma'naviy va madaniy merosini saqlash hamda rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatning ijtimoiy jarayonlarini tushunishga yordam berib, inson tafakkurini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, filologik ta'lim tillarning o'rganilishi, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash va ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot zamonaviy ta'lim jarayonlarining ahamiyatini ochib berib, ijtimoiy va gumanitar sohalarning taraqqiyotiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-gumanitar fanlar, filologik ta'lim, zamonaviy ta'lim tizimi, madaniyatlararo muloqot, ma'naviy meros, ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim innovatsiyalari.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение социально-гуманитарного и филологического образования в современном мире. Сохранение и развитие духовного и культурного наследия человечества является важной задачей общества. Социально-гуманитарные науки помогают понять социальные процессы, формируя интеллектуальное развитие человека. В то же

время филологическое образование играет ключевую роль в изучении языков, укреплении межкультурного диалога и развитии науки. Данное исследование раскрывает значение современных образовательных процессов, акцентируя внимание на развитии социальных и гуманитарных дисциплин.

Ключевые слова: Социально-гуманитарные науки, филологическое образование, современная образовательная система, межкультурный диалог, духовное наследие, развитие науки, образовательные инновации.

Annotation: This article explores the role and significance of social-humanitarian and philological education in the modern world. Preserving and developing humanity's spiritual and cultural heritage is a crucial societal task. Social-humanitarian sciences help understand social processes and contribute to intellectual development. At the same time, philological education plays a key role in language studies, strengthening intercultural dialogue, and advancing scientific progress. This research highlights the importance of contemporary educational processes, emphasizing the development of social and humanitarian disciplines.

Keywords: Social-humanitarian sciences, philological education, modern education system, intercultural dialogue, spiritual heritage, scientific development, educational innovations.

Ta'lim jarayonida yoshlarga iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, g'oyaviy ta'lim-tarbiya va bilim berish, ularni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda barcha fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, falsafa, dinshunoslik, pedagogika, psixologiya kabi fanlar muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ushbu fanlar oldida turgan muhim vazifa yot g‘oya va mafkuralardan xoli bo‘lgan, yangicha jahon talablariga javob beradigan ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatimizda va dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy o‘zgarishlarni yoshlar ongiga yetkazish kabi masalalardan iborat. Respublikamizda yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy-siyosiy bilim darajasi, ma'naviy

va jismoniy kamoloti, ayniqsa, ma'naviy tarbiyasi masalalari 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi Taraqqiyot strategiyasida ham ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, unda jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhim masala sifatida belgilangan.

Bugun dunyoda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar, mafkuraviy xurujlar, chegarabilmas ayrim buzg'unchi va yot g'oyalarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri, diniy ekstremizm, terrorizm, turli radikal oqimlarning noqonuniy faoliyati barchamizni doimo sergak, hushyor bo'lishga, ayniqsa, yoshlar ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor berishga undamoqda. Shu bois mamlakatimizning davlat siyosatida yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviy va g'oyaviy immunitetini mustahkamlash masalalari alohida o'rin tutadi.[1]

Oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – nafaqat mutaxassislik fanlaridan talabalarga bilim berish, balki jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida, dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ularning ongiga yetkazish, o'z ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga ega yoshlarni tarbiyalash, kitob o'qishga qiziqtirish, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini hamda yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ijtimoiy-gumanitar fanlarni yangicha asosda o'qitishni hamda yanada takomillashtirishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Hozirgi shiddatli o'zgarishlar davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish borasida amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emas. Kelajakda mazkur yo'nalishda ko'plab vazifalarni amalga oshirish zarur. Bu o'quv dasturlarini ma'no va mazmun jihatidan qayta ko'rib chiqish va o'quv qo'llanmalarining g'oyaviy mazmunida bugungi kun va yangilanishlar talablariga javob beradigan mutlaqo yangi avlodini yaratishni taqozo etadi.

Birinchidan, Ijtimoiy-gumanitar sohaga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishdagi ba'zi pedagoglarning mas'uliyatsiz yondoshuvlari; Ikkinchidan, ijtimoiy-gumanitar sohaning zamonaviy ruhini ifodalovchi texnologiyalarni sohaga jalb qilish va ulardan foydalanish darajasining pastligi; Uchinchidan, Ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassislarini tayyorlash, ularni jamiyatning faol qatlamiga aylantirish jarayoni voqelikdan ortda qolmoqda; To'rtinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish tizimida nazariya va amaliyot birligi didaktik qoidasiga yetarli e'tibor qaratilinmayotganligi. Muammolar aniq, biroq ularga yechim ham, amaliy harakat mezonlari ham aniq bo'lishi kerak. Zotan, boshqa fanlar misolida tahlil qiladigan bo'lsak, masalan: aniq fanlar o'z o'quvchisi, talabalari va tadqiqotchilarini ko'zlangan maqsadlarga erishishida aniq formulalarga tayanib, muayyan masalaning yechimini yechishadi. [2]

Tabiiy fanlar esa tadqiqotchilik jarayonlarida aniqlangan va tasdiqdan o'tgan ma'lumotlar asosida tajribaga tayanib ish ko'radi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning boshqa fanlardan ajralib turuvchi jihatlari nimada? Mazkur savolga quyidagicha javob beramiz: ijtimoiy-gumanitar fanlar nafaqat o'z o'quvchisi, talabalari va tadqiqotchilarida, balki jamiyatning barcha a'zolarida insoniylik, axloqiylik, halollik, ezigilik kabi asl insoniy sifatlarni shakllantiradi va amalda namoyon qiladi. Ko'pchilikning nazarida ijtimoiy-gumanitar soha chegarasi yo'q, foydasiz, aniq bo'lmagan, murakkab tizim. Aslida esa, haqiqat shuki, g'oya sog'lom bo'lsa, o'z ob'yektiga to'g'ri yo'naltirilsa kutilgan natijasini bermasdan qolmaydi. Agar g'oya vayronkor bo'lsa, undan g'araz niyatlarda foydalanilsa u o'zining salbiy hodisalarini namoyon qiladi.

Ijtimoiy-gumanitar sohaning mazmunan boyishi va rivojlanishi uchun jadid bobolarimiz shunchaki mehnat qilishmagan, aksincha, jonlarini o'rta qo'yib fidoiylilik ko'rsatishgan. Bugungi kunda ana shunday fidokorlik, natijadorlik kabi amaliy harakatlarning yetishmasligi tufayli ham soha rivojida, ham o'qitish tizimida katta muammolarni tug'dirmoqda. Aholi, ayniqsa, ma'nan shakllanmagan

yoshlarimizning turli yot g'oyalarga ergashib, aldanib qolayotganligi ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida kamchiliklar yaqqol ko'rinib qolayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ilgari surilayotgan "Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi", "Yangi O'zbekiston yangicha dunyoqarash" shiori va "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish va tushunarli bo'lishida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish masalasi real voqelikka mos amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sharqona qarashlarda axloqiylik ezgu qadriyat sifatida shakllanib, xalqlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Biroq bugungi kunda dilni xira qiluvchi axloqiy buzg'unchilik, turli nomaqbulgarchiliklarga taqlidan o'zligini unutish holatlari kuzatilayotganligi haqiqatdir. Bu muammolarni oldini olishda hamjihatlik, birgalikdagi safarbarlik nihoyatda muhim va zarur. Ayni shu o'rinda ijtimoiy - gumanitar fanlarning integrativ xarakteri boshqa fanlarni o'z ortidan ergashtira olish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Qarashlar qarama-qarshiligi, ziddiyatli jarayonlarning avj olishi, nafaqat gumanitar fanlarning rivojlanishiga, balki bu fanlarning destruktiv kuchlar hamlalaridan himoya qila olish xususiyatiga ega ekanligi ayni soha orqali milliylikni saqlab qolish, hatto yangi uyg'onish davriga o'tish imkoniyatlarini beradi.[3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200 qarori 9-bandi beshinchi xatboshisida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yil 6-iyun kuni Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida **"Filologik ta'limda zamonaviy yondashuv va innovatsiyalar: tadqiqot va o'qitish istiqbollari"** mavzusida **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya** o'tkaziladi.

Konferensiya maqsadi: dunyo hamjamiyati bilan integratsiya sharoitida uzluksiz ta'lim tizimida **filologik ta'lim sifatini ta'minlash, sohaga oid innovatsion tadqiqotlar va zamonaviy til ta'limida sinergetik yondashuv hamda fanlararo**

aloqadorlikning axborot ta'lim muhitiga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tajribalar natijalarini to'plash, o'rganish va ommalashtirish.[4]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Zamonaviy dunyoda ijtimoiy-gumanitar va filologik ta'lim insoniyatning madaniy, ma'naviy va intellektual taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ta'lim nafaqat yosh avlodga nazariy bilim berish, balki ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish, global va mahalliy ijtimoiy jarayonlarga to'g'ri yondashishni o'rgatish bilan ham ahamiyatlidir. Bugungi shiddatli rivojlanayotgan axborot asrida ijtimoiy-gumanitar va filologik fanlarni o'qitish metodikasi doimiy takomillashib borishi, ta'lim mazmuni zamonaviy talablar asosida boyitilishi lozim. Ayniqsa, turli mafkuraviy oqimlar, globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo muloqot sharoitida yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, kelajak avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash uchun ijtimoiy-gumanitar va filologik fanlarni innovatsion yondashuv asosida o'qitish, ularni jamiyat rivojlanishining dolzarb muammolariga mos ravishda yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelgusida ta'lim tizimini isloh qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va fanlararo integratsiyani kuchaytirish orqali amalga oshirilishi lozim deb uylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.
2. Қ.Т.Олимов, С.Й.Ашурова. Замонавий таълим технологиялари. – Т., 2007.
3. Н.Х. Мамадиева. Олий таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанларни

ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари // Халқ таълими, 2018.

4. Н.Х. Мамадиева. Маънавий-марифий ишлар самараси ёшларимиз эришаётган натижаларда ўз аксини топмоқда // Умумтаълим фанлар методикаси,